

SURXONDARYO VILOYATINING MADANIY HAYOTIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI

Radjabova Sabohat Bobirovna

(PhD)Termiz davlat universiteti “Jahon tarixi” kafedrası o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7999983>

Annotatsiya. Ushbu maqola Surxondaryo viloyatining madaniy hayotida munosib o’rniga ega xotin-qizlar faoliyatini tahlil qilib, viloyatda madaniy sohalar rivojlanishi hamda sohada xotin-qizlarning qay darajada qo’llab-quvvatlanishi misollar bilan ochib berilgan.

Kalit so’zlar: “Nazokat” gazetasi, “Ayol va zamon”, “Saodat”, “Guliston”, “Yoshlik”, “Sanam”, “O’zbekiston xalq artisti”, “Do’stlik” ordeni.

ACTIVITIES OF WOMEN IN THE CULTURAL LIFE OF SURKHANDARYA REGION

Abstract. This article analyzes the activities of women who have a worthy place in the cultural life of Surkhondaryo region, reveals the development of cultural spheres in the region and the level of support of women in the sphere with examples.

Keywords: "Nazokat" newspaper, "Ayol va Zamon", "Saodat", "Guliston", "Yoshlik", "Sanam", "People's Artist of Uzbekistan", "Dostlik" Order.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной статье анализируется деятельность женщин, занимающих достойное место в культурной жизни Сурхандарьинской области, раскрывается развитие культурных сфер региона и степень поддержки женщин в сфере на примерах.

Ключевые слова: Газета «Назокат», «Аёл ва замон», «Саодат», «Гулистон», «Санам», «Народный артист Узбекистана», «Дўстлик».

Mustaqillikning 1995-1996-yillarida Surxondaryo viloyatida madaniy sohalarda faoliyat olib boruvchi ayollar soni 35 nafarni tashkil qilgan bo’lib, ular ham asosan tuman va shahar markazlarida o’z ish faoliyatini olib brogan. 2004-yildan boshlab viloyatda sohadagi xotin-qizlar soni ortib bordi¹. Chunki, Aynan shu yildan viloyatda madaniyat uylari, teatrlar faoliyatini tashkil etishga alohida e’tibor berildi. E’tibor natijasida Surxondaryo viloyati sohada o’zining munosib o’rniga ega ayollar faoliyati har tomonlama qo’llab-quvvatlanib, davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Xususan, ulardan Jamila Ergashova 30 yildan ortiqroq davr mobaynida matbuotning eng og’ir va masuliyatli tarmog’i bo’lgan-gazeta ishida faoliyat olib bordi. Dastlab Jarqo’rg’on tumani gazetasida, keyinchalik “Surxon tongi” gazetasida faoliyat olib bordi².

1997-yil viloyat Xotin-qizlar qo’mitasining taklifi bilan faoliyati to’xtab qolgan qo’mita nashri “Nazokat” gazetasini bosh muharrir sifatida qayta tiklab, “Ayol va zamon” nomi bilan chop eta boshladi. Jamilaxon qissa va hikoyalar ham yozdi. Uning qissa va hikoyalari “Sharq yulduzi”, “Saodat”, “Guliston”, “Yoshlik”, “Sanam” va “Ishonch” kabi gazeta va jurnallarda chop etildi. Adibaning “Izhor”(1992), “Intiqom”(1995), “Tanazzul”(1997 yil) hamda “Ayol jodusi”(2005 yil)

¹ Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond,1-ro’yxat, 465-yig’ma jild, 67-varaq.

² Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond,1-ro’yxat, 465-yig’ma jild, 3-varaq.

nomli qissa va hikoyalari jamlangan kitoblari muallifni viloyat va respublika bo'yicha tanitdi. Jamila Ergashova "O'zbekiston mustaqilligining 15 yilligi" ko'krak nishoni sovrindori, Respublika "Atirgul" ko'rik-tanlovi g'olibi, "Adib Sobir Termiziy" nomidagi davlat mukofoti sovrindori. Jamila Ergashova o'zining madaniyat sohasidagi xizmatlari uchun munosib taqdirlanib, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoniga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatining madaniy hayoti rivojida Mannon Uyg'ur nomidagi viloyat musiqali drama teatrining o'rni juda ham katta. Teatr san'ati sohasida ham o'zining munosib o'rniga ega ayollar juda ko'pchilikni tashkil etib, ulardan biri Xadicha Boboxonova hisoblanadi. Aktrisa Hamzaning "Boy ila xizmatchi asarida-Jamila, Sobir Abdullaning "Tohir va Zuhra" sida-Zuhra, Xurshidning "Layli va Majnun" ida-Layli, Komil Yashinning "Ravshan va Zulxumor" ida-Zulxumor, "Nurxon"-Nurxon, Chingiz Aytmatovning "Momo er" ida-Momo er, Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'olon" ida-Farmonbib, U.Xodjibekovning "Arshi mololon" ida-Gulchehra, shuningdek "Maysaraning ishi" spektaklida-Maysara obrazlarini yuksak mahorat bilan ijro etgan. Uning ijrosidagi barcha obrazlar tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egallagan. O'zining qilgan xizmatlari evaziga kasbdoshlari tomonidan "sahnamiz farishtasi" deb e'tirof etildi.

1994-yilda o'tkazilgan Respublika teatrlarining "Navro'z" festivalida Mashrab Boboyev qalamiga mansub "O'chmasin chiroq" dramasida Xadicha Boboxonova yaratgan Jannat xola obrazi "Eng yaxshi ayol obrazi" mukofotiga loyiq deb topildi. Aktrisa umr bo'yi jonkuyar fidoiy bo'ldi. Viloyat madaniy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etdi. Xadicha Boboxonovaga san'at yo'lidagi xizmatlari uchun 1979 yilda "O'zbekiston xalq artisti" unvoni berildi. Mustaqillik yillarida aktrisa "El-yurt hurmati" ordeni va "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Bundan tashqari viloyat teatr san'ati rivojida Gulnora Ravshanovaning, Surxondaryo viloyat musiqali va drama teatri aktrisasining xizmatlari katta bo'ldi³. Mahoratli aktrisa teatr sahnasida 100 dan ortiq rang-barang talqindagi rollarni ijro etdi. Uning fidokorona xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib baholanib, 1987-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, 2004-yilda esa unga "O'zbekiston xalq artisti" yuksak faxriy unvoni berildi.

Surxondaryo viloyatida bugungi kunda nomoddiy madaniy yodgorlik sifatida qaralib, ardoqlanib kelayotgan qadriyatlarimizdan biri bu baxshichilik san'ati sanaladi. Baxshichilik san'ati bilan hozirgi kunda ayollar ham shug'ullanib kelmoqda. Vohada bu san'at turini keng yoyishga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan ayollardan biri Zulhumor baxshi Shernazarova sanaladi. U birinchilardan bo'lib vohada baxshichilik bilan tanildi. U Go'ro'g'li turkumidagi "Alpomish", "Xondalli", "Go'ro'g'li", "Ollanazar Olchinbek", "Nurali" va "Ravshanxon" kabi dostonlarni va 400 ga yaqin termalarni* mahorat bilan kuylab kelmoqda, ko'pgina ko'rik tanlovlarda ham qatnashib sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib, "Do'stlik" ordeni bilan ham taqdirlandi⁴.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, bugun gender tenglik har tomonlama kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasida ayollarning bilim olishlari qonun bilan mustahkamlanmoqda. Jadid adabiyotining yorqin namoyondasi Fitratning "Oila" asarida xotin-qizlarning dunyo ilmini egallashlari yosh avlod tarbiyasida nechog'lik muhim ekanligini alohida ta'kidlanganidek,

³Surxon tongi 1994-yil. 3-mart.-B. 3.

⁴Dala yozuvi. Qumqo'rg'on tumni. Bo'ston mahallasi. Zulhumor baxshi Shernazarova. 2020 yil. 28 may.

* **Terma**-o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri (hikoyachilar ijrosidagi qo'shiq).

bugungi O'zbekistonda ayollarning ilm cho'qqilarini zabt etishlari uchun barcha imkoniyatlar eshigi keng ochildi.

Xususan, 2016-yilda respublikada oliy va undan yuqori ma'lumotli ayollar jami 25 yosh va undan katta ayollarning 12 % ini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020-yilda 13,2 % ni tashkil qildi. Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, xotin-qizlarning oliy ma'lumotlik darajasi ortib bormoqda. Bu ko'rsatkichlarni yanada o'stirib borish uchun tizimli qaror va qonunlar qabul qilindi. Respublikada iqtidorli xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tizimli shakli yaratildi.

REFERENCES

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro'yxat, 465-yig'ma jild, 67-varaq.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro'yxat, 465-yig'ma jild, 3-varaq.
3. Surxon tongi 1994-yil. 3-mart.-B. 3.
4. S. B. Radjabova. Ayollar salomatligini muhofazasi davlat dasturlarida. *International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 2 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ*
5. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
6. Rahmonov, M. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 341-344.
7. To'Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG'LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.